QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI JAHON TARIXI KAFEDRASI MUSTAQIL TADQIQOTCHISI

JOVLIYEV SARDORBEK BASHIROVICH

jovliyevsardorbek995@gmail.com

https://orcid.org/0009-0006-1290-7752

YAKKABOG‘ BEKLIGINING TABIIY VA TARIXIY-GEOGRAFIK JOYLASHUVI

Annotatsiya:*Mazkur tezisda Qashqadaryo vohasining muhim bekliklaridan biri bo‘lgan Yakkabog‘ bekligining tabiiy-geografik o‘rni, shakllanish tarixi va ma’muriy tuzilishi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar:*Yakkabog‘ bekligi, Qashqadaryo vohasi, Shahrisabz, avaqli urug‘i, Qosimbiy, Buxoro amirligi, amlok, Qushbegi arxivi, Eski Yakkabog‘ qal’asi, bek o‘rdasi, Qizildaryo, arxeologik qazishmalar.*

Kirish. Qashqadaryo vohasining bekliklaridan yana biri Yakkabog‘ tarixiy-geografik jihatdan shimoldan Shahrisabz, janubdan Qamashi va g‘arbdan Chiroqchi bilan chegaradosh bo‘lib, 1.1 ming kv.km hududni egallagan. Yakkabog‘ tumani hududining chekka sharqiy qismida Hisor tog‘ tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqlari o‘rnashgan bo‘lib, uning balandligi 2500 metrni tashkil etadi. Mazkur tarmoqlar Beshnov, Chaqchar, Xontaxta nomlarini olgan. Tog‘ tarmoqlari g‘arbga tomon pastlashib tekislikka qo‘shilib ketadi. Yakkabog‘ viloyatining tashkil topish davriga nazar tashlansa, Yakkabog‘ning viloyati sifatida paydo bo‘lishi ashtarxoniylar davriga (XVIII asrning birinchi yarmi) borib taqaladi. Kenagas va mang‘itlar Shaxrisabz viloyatiga kelib o‘rnashgan vaqtda viloyatning Taka, Yakkabog‘, Surxob mintaqalari boshqaruvini avaqli urug‘i vakillari qo‘lga kiritadilar. Avaqli urug‘i ayrim tarixiy manbalarda kenagas qavmining tarmog‘i sifatida keltirib o‘tilgan.

Asosiy qism. Yakkabog‘ (nashrlarda Yakkabog‘) – Qashqadaryo vodiysida joylashgan viloyat toponimning morfologik tarkibi Yak - “bir”, “yakka”, “yagona” hamda “bog‘” so‘zlaridan tashkil topgan.1 Yakkabog‘ viloyatining shakllanish davri avaqli urug‘ining chag‘ar tarmog‘idan chiqqan, qat’iyatli Qosimbiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Qosimbiy Muhammad Rahimxon mang‘it (1715-1759 y) Shahrisabz viloyatini bo‘ysundirgan paytlargacha Yakkabog‘da hokim bo‘lib turgan. Taxminan 1755 yillar atrofida bir qancha urug‘doshlari bilan Hisor tomonga o‘tib ketadi. Bu vaqtga kelib hokimlik Muhammad Amin tomonga o‘tadi. Qosimbiy boshchiligidagi avaqlilar Hisorda ko‘p turishmaydi, qavm yetakchilari o‘rtasida ixtilof chiqib, ular yana o‘z yurti Yakkabog‘ga qaytib kelishib, Qosimbiy qavmlar o‘rtasidagi munosabatlarni va o‘z nufuzini tiklaydi. Muhammad Rahimxon mang‘it vafotidan so‘ng Buxoro davlatining markaziy boshqaruvi yana zaiflashadi. Shahrisabzda yangi va g‘ayratli hokim mashhur Beknazar devonbegi siyosiy maydonda paydo bo‘ladi. U murosasiz raqibga aylangan qarindoshlari (mang‘itlar) qo‘liga o‘tgan markaziy hokimiyatga bo‘ysunmay mustaqil siyosat yuritishga harakat qilardi.

Yakkabog‘ esa allaqachon Qosimbiy avaqli va uning avlodlari tepasida turgan ma’muriy boshqaruv tizimiga ega viloyat hisoblanar edi. Avaqlilar kenagas qavmining yirik bir tarmog‘i bo‘lgani sababli Yakkabog‘ va Shahrisabz bekligi boshliqlari ko‘p vaziyatlarda siyosiy ittifoqda yashashga harakat qilishgan. Yakkabog‘ Shahrisabzga nisbatan kuchsizroq bo‘lsa-da, mustaqil viloyatga aylanib ulgurgandi

Beklikning markazi bo‘lgan Yakkabog‘ qo‘rg‘oni shu davrdan boshlab Buxoro amirligining muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan shahri sifatida katta o‘rin tutgan. Shaharning ahamiyati shu bilan belgilanar ediki, u orqali Shahrisabz vohasini Hisor o‘lkasi bilan bog‘lovchi eng qisqa yo‘l-Toshqo‘rg‘on dovoni orqali o‘tgan.

Qushbegi arxivi ma’lumotlariga ko‘ra Yakkabog‘ hududi 10 amloklikka bo‘lingan. Bobo Shodi, Beshariq, Bo‘zariq, Imom Yoqub, Qorabog‘, Qorayog‘och,

1 Абдуваҳобова М.Р. Қушбеги архивида тарихий топонимлар ва Бухоро амирлигининг маъмурий-худудий тизими.... Б.60

Samoq, Toshqo‘rg‘on, Hazrati Langar, Yakkabog‘ (Yakkabog‘). Xususan, Beshariq amloki 10 ta, Bo‘zariq 19 ta, Bobo Shodi 10 ta, Diyo‘l5 ta, Imom Yoqub 13 ta, Samoq 13 ta, Qorabog‘ 10 ta, Qorayog‘och 8 ta, Hazrati Langar 12 ta, Toshqo‘rg‘on 2 ta ya’ni Zarmast va Toshqo‘rg‘on qishloqlaridan iborat bo‘lgan.2 O‘z navbatida amlokliklar bir nechta qishloq va mavzelarga bo‘lingan.

Xulosa. Yakkabog‘ bekligi Qashqadaryo vohasining tarixiy-geografik jihatdan muhim hududlaridan biri bo‘lib, qulay joylashuvi tufayli XVIII–XIX asrlarda mustaqil viloyat sifatida shakllandi. Uning tashkil topishi avaqli urug‘i, xususan Qosimbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, Buxoro markaziy hokimiyati zaiflashgan davrda viloyat o‘z mavqeini mustahkamladi. Avaqlilar bilan kenagaslar o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari Yakkabog‘ va Shahrisabz hokimlari o‘rtasida siyosiy ittifoqning shakllanishiga imkon berdi.

Beklik markazi Yakkabog‘ qo‘rg‘onining strategik ahamiyati shundaki, Shahrisabz vohasini Hisor o‘lkasi bilan bog‘lovchi eng qisqa yo‘l shu hudud orqali o‘tgan. Qushbegi arxivi ma’lumotlariga ko‘ra, hudud 10 ta amlokka bo‘lingan bo‘lib, bu rivojlangan ma’muriy boshqaruv tizimidan dalolat beradi. Baland devorlar, ark va darvozalar bilan mustahkamlangan Yakkabog‘ qal’asi beklikning harbiy va siyosiy markazi vazifasini bajargan. Arxeologik qazishmalar natijalari esa bu hududning ilk o‘rta asrlardan boshlab o‘zlashtirilganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Абдуваҳобова М.Р. “Қушбеги архивида тарихий топонимлар ва Бухоро амирлигининг маъмурий-ҳудудий тизими”.

Абдусаттор Жуманазар. Яккабоғ: Соҳибқирон камол топган юрт. Тошкент: Академнашри, 2018 й.

А.Ҳасанов. Қашқадарё воҳаси шаҳарсозлиги ва меъморчилиги.

2 Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XXв.) Отв.ред. Академик АН РУз А.Р.Мухамеджанов. - Ташкент: Университет. 2001. С. 39.

Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XXв.) Отв.ред. Академик АН РУз А.Р.Мухамеджанов. - Ташкент: Университет. 2001.

Природные условия и ресурсы юго-западного Узбекистана.